

PUL-KREDIT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI

Parpiyev Voxidjon Ergash o'g'li

Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika instituti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot"

yo'nalishi (kunduzgi) 2-kurs talabasi

voxidjonparpiyev6@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqola pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillarini yoritadi. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va bozor mexanizmlariga moslashish kabi tamoyillar tahlil qilinadi. Shuningdek, samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, inflyatsion targetlash, prognozlar, Pul-kredit siyosati, iqtisodiy barqarorlik, inflyatsiyani nazorat qilish, moliyaviy barqarorlik, bozor mexanizmlari, markaziy bank, pul massasi.

Парпиев Вохиджон Эргашович

Студент 2-го курса дневного отделения направления

«Экономика» экономического факультета Ташкентского института экономики и педагогики

Эл. почта: voxidjonparpiyev6@gmail.com

Аннотация. В данной статье освещаются основные принципы денежно-кредитной политики. Анализируются такие принципы, как обеспечение экономической стабильности, контроль инфляции, укрепление финансовой стабильности и адаптация к рыночным механизмам. Также представлены предложения по повышению эффективности.

Ключевые слова: Денежно-кредитная политика, экономическая стабильность, контроль инфляции, финансовая стабильность, рыночные механизмы, центральный банк, денежная масса.

Parpiyev Voxidjon Ergashovich

Second-year undergraduate student in the "Economics" program (full-time) at the

Faculty of Economics, Tashkent Institute of Economics and Pedagogy

Email: voxidjonparpiyev6@gmail.com

Annotation. This article highlights the main principles of monetary policy. It analyzes principles such as ensuring economic stability, controlling inflation, strengthening financial stability, and adapting to market mechanisms. Additionally, proposals aimed at improving efficiency are presented.

Keywords: Monetary policy, economic stability, inflation control, financial stability, market mechanisms, central bank, money supply.

Kirish. Pul-kredit siyosati davlatning iqtisodiyotni boshqarish uchun qo'llaydigan muhim vositalaridan biridir. Ushbu siyosat mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish, bandlikni oshirish va iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida amalga oshiriladi.

Pul-kredit siyosati - hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta'minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari. Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi. Pul kredit siyosati orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko'paytiriladi, inflyatsiyaning pasaytirish chora-tadbirlari ko'riladi. Markaziy bank Pul kredit siyosatini olib borishda pul bozoriga to'g'ridan to'g'ri o'zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta'sir o'tkazishi mumkin.

Pul-kredit siyosatining eng muhim tamoyillaridan biri iqtisodiy barqarorlikni saqlashdir. Bu tamoyil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, inflyatsiyani nazorat qilish va ish bilan bandlik darajasini yuqori darajada ushlab turishni o'z ichiga oladi. Markaziy bank ushbu maqsadlarni amalga oshirishda asosiy rol ni o'ynaydi.

Pul kredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi. Bevosita vositalar — moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxлари (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to'g'ridan to'g'ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit kurinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxлари va hajmi nazorat qilinadi. Bilvosita vositalar — Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslariga bozor mexanizmlari (majburiy zaxiratalablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta'sir etiladi.

Markaziy bank inflyatsion targetlash rejimi doirasida iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Inflyatsiya darajasi bo'yicha maqsadli ko'rsatkich e'lon qilinadi va unga erishish ustuvorligi ta'minlanadi.

Iqtisodiyotning salohiyati, talab va taklifdagi o'zgarishlar, makroiqtisodiy prognozlar va umumqabul qilingan standartlar asosida aniqlanadigan inflyatsiyaning erishilishi kerak bo'lgan maqbul ko'rsatkichi maqsad – target etib belgilanadi. Mamlakatimizda inflyatsiyaning erishilishi lozim bo'lgan o'rta muddatli maqsadli ko'rsatkichi 5 foiz etib belgilandi va target darajasi keng jamoatchilikka (aholiga, biznes vakillariga va moliya bozori ishtirokchilariga) e'lon qilindi. Endilikda, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan barcha sa'y-harakatlar, chora-tadbirlar va pul-kredit sohasidagi qarorlar inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi – targetiga erishishga qaratiladi. Maqsadli ko'rsatkichga erishilishi iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan Markaziy bank faoliyatini baholash, umuman olganda, olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga bo'lgan ishonch shakllanishining asosiy mezonini hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, makroiqtisodiy

sohada qabul qilinayotgan barcha qarorlar inflyatsion maqsadlar bilan uyg'un holda qabul qilinishi lozim. Markaziy bank faoliyatida inflyatsiyaning target ko'rsatkichiga erishish vazifasi boshqa vazifalardan ustun hisoblanadi.

Markaziy bank asosiy stavkasi pul-kredit siyosatini yuritishning asosiy instrumenti hisoblanadi.

Asosiy stavka pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti bo'lib, inflyatsiyaning 5 foizlik targeti doirasida shakllanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul-kredit sharoitlarini belgilab beradi. Bunda Markaziy bank asosiy stavkasi iqtisodiyotdagi foiz stavkalari dinamikasiga va bu orqali ichki talabga ta'sir ko'rsatadi. Ichki talabni muvozanatlashtirish orqali inflyatsion targetga erishiladi. Asosiy stavkani ko'rib chiqish bo'yicha Markaziy bank boshqaruvi yig'ilishlari oldindan belgilangan grafik asosida yilda 8 marotaba o'tkaziladi. Bunda Markaziy bank tomonidan asosiy stavka bo'yicha qarorlarning e'lon qilinishi bilan bir qatorda uning kelgusida kutilayotgan darajasi (trayektoriyasi) bo'yicha signallarning berilishi iqtisodiyot sub'ektlarining uzoq muddatli inflyatsion kutilmalari shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Asosiy stavka darajalari

Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 151-moddasi bilan O'zbekiston Markaziy bankining pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mustaqilligi belgilangan. Shu asosida, Markaziy bank inflyatsiya targetiga erishishda pul-kredit siyosati instrumentlari va yondashuvlarini mustaqil tanlash huquqiga ega. Bunda foiz stavkalarini boshqarish, ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish, majburiy zaxiralar me'yorlarini o'zgartirish va iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib boshqa choralar ko'rilishi mumkin. Olib borilayotgan pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmi asosiy stavka va foiz koridori asosida ishlaydi. Pul-kredit siyosatining operatsion maqsadi pul bozoridagi qisqa muddatli (overnayt) foiz stavkalarini asosiy stavkaga yaqin darajada shakllanishini ta'minlash hisoblanadi. Markaziy bank pul-kredit instrumentlaridan faol foydalangan holda bank tizimi umumiy likvidligini boshqaradi va bu orqali pul bozori foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatadi.

Pul-kredit operatsiyalari va operatsion mexanizm

Pul-kredit siyosatiga oid qarorlar keng qamrovli makroiqtisodiy tahlil va prognozlariga asoslanadi. Markaziy bankning asosiy stavka bo'yicha qarorlari iqtisodiy faollikka va yalpi talabga bosqichma-bosqich, ma'lum vaqt oralig'ida kechikish bilan ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, Markaziy bank pul-kredit siyosati bo'yicha qarorlarni qabul qilishda har tomonlama asoslangan makroiqtisodiy tahlil va prognozlardan kelib chiqadi. Bugungi kunda Markaziy bank makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishda, asosan, Choraklik prognozlashtirish modelidan (QPM) foydalanmoqda. Bundan tashqari, bir qator ekonometrik va tarkibiy modellar prognoz natijalarini taqqoslashda va tadqiqotlarni amalga oshirishda ishlatilmoqda. Ta'kidlash joizki, asosiy stavka bo'yicha qarorlar ma'lum darajadagi noaniqliklar sharoitida qabul qilinadi. Sababi, makroiqtisodiy prognozlar iqtisodiy rivojlanishning ehtimoliy istiqbollari, jahon xomashyo va moliya bozorlarida kutilayotgan o'zgarishlar va boshqa omillar asosida shakllantiriladi. Shu

sababli ham, Markaziy bank pul-kredit siyosati yo'nalishi bo'yicha qarorlar qabul qilishda omillarning nisbatan barqaror tendensiyalaridan va ularning inflyatsiya darajasiga ta'sirlaridan kelib chiqadi. Markaziy bank mamlakatdagi va global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar va noaniqliklarni inobatga olgan holda tahliliy-prognozlash salohiyatini takomillashtirib boradi.

Markaziy bank valyuta siyosatini erkin suzuvchi valyuta kursi rejimida amalga oshiradi. Erkin suzuvchi valyuta kursi inflyatsion targetlash doirasida samarali pul-kredit siyosati yuritishning zarur shartlaridan hisoblanadi. Markaziy bankning ichki valyuta bozoridagi ishtiroki neytrallik tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni Markaziy bank intervensiyalari yil davomida sotib olingan monetar oltin hajmi doirasida amalga oshiriladi va almashuv kursining fundamental trendiga ta'sir ko'rsatmaydi. So'm almashuv kursi ichki valyuta bozoridagi xorijiy valyutaga bo'lgan talab va taklif mutanosibligiga nisbatan belgilanadi. Markaziy bank so'm almashuv kursi bo'yicha hech qanday maqsadni belgilamaydi. Bozordagi talab va taklif asosida erkin shakllanuvchi almashuv kursi tashqi xatarlarning ichki iqtisodiyotga o'tishini cheklovchi ("shock absorber") funksiyani bajaradi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Shaffof kommunikatsiya siyosati — inflyatsion targetlash rejimidagi pulkredit siyosatining muhim dastagi. Inflyatsion targetlash rejimining asosiy elementlaridan biri bu pul-kredit sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning ochiqqligi va bu boradagi shaffoflikning ta'minlanishi hisoblanadi. Samarali kommunikatsiya siyosatining ishlab chiqilishi va pul-kredit siyosati sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning keng jamoatchilikka o'z vaqtida va tushunarli tilda yetkazilishi aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining inflyatsion kutilmalari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsion targetlashga o'tish davrining boshlanishi bilan Markaziy bank olib borayotgan faoliyatining ochiqqligiga katta e'tibor bermoqda. Asosiy stavkani ko'rib chiqish bo'yicha har bir boshqaruv yig'ilishi yakunlari bo'yicha press-reviz e'lon qilinishi, Markaziy bank Raisi va uning o'rinbosarlari ishtirokida press-brifinglar tashkil etilishi hamda "Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari", "Pul-kredit siyosati sharhi" va bir qator tahliliy sharhlar va infografikalarning e'lon qilib borilishi shu yo'lda qo'yilgan muhim qadamlardan hisoblanadi. Markaziy bank tomonidan inflyatsiyaning targeti doirasida shakllanishining ta'minlanishi va kommunikatsion shaffoflikning oshirilishi aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining Markaziy bankka bo'lgan ishonchi ortishiga va amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati choralari ta'sirchanligining oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Pul-kredit siyosati iqtisodiyotni boshqarishning strategik vositasi bo'lib, uning asosiy tamoyillari iqtisodiy barqarorlikni saqlash, inflyatsiyani nazorat qilish, pul massasini boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va siyosatni bozor mexanizmlariga moslashtirishdan iborat. Ushbu tamoyillarni amalga oshirishda markaziy bankning roli katta bo'lib, uning mustaqilligi va shaffofligi muhim ahamiyatga ega.

Pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirish uchun quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Markaziy bank va tijorat banklari zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiyotdagi jarayonlarni tezkor va aniq kuzatib borishi lozim.
 - Kadrlar salohiyatini oshirish: Pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirish muhim ahamiyatga ega.
 - Xalqaro tajribani o'rganish: Rivojlangan mamlakatlarning pul-kredit siyosati bo'yicha tajribalarini o'rganib, mahalliy sharoitlarga moslashtirish lozim.
 - Iqtisodiy monitoring tizimini kuchaytirish: Pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish uchun real vaqt rejimida iqtisodiy ko'rsatkichlarni monitoring qilish va tegishli choralarni ko'rish zarur.
 - Jamoatchilik bilan samarali aloqa: Aholi va biznes vakillarini pul-kredit siyosatining maqsadlari va choralari haqida xabardor qilish orqali ishonchni mustahkamlash kerak.
- Ushbu takliflar pul-kredit siyosatini yanada samarali qilishga yordam beradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). "Pul-kredit siyosati bo'yicha yillik hisobot."
2. Mishkin, F. S. (2019). "Pul-kredit siyosati va moliyaviy tizim." Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2020). "Iqtisodiyot asoslari." Toshkent: Adolat nashriyoti.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari. (2023). "Iqtisodiy islohotlar doirasidagi pul-kredit siyosati choralari."
5. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) materiallari. (2022). "Pul-kredit siyosati va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi."
6. Krugman, P., & Wells, R. (2021). "Makroiqtisodiyot." Toshkent: Ilm-fan nashriyoti.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2023). "Iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami."
8. cbu.uz
9. wikipedia.uz